

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA DILRABO SHAMSIDINOVNA

KONCHILIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI
(INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Kodirova Dilrabo Shamsidinovna

Konchilik terminlarining leksikografik tadqiqi (ingliz, o‘zbek va rus tillari
misolida).....3

Кодирова Дилрабо Шамсидиновна

Лексикографическое исследование терминов горнодобывающей
промышленности (на примере английского, узбекского и русского языков).23

Kodirova Dilrabo Shamsidinovna

Lexicographic Study of Mining Terms (on the example of the English, Uzbek and
Russian languages).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA DILRABO SHAMSIDINOVNA

KONCHILIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI
(INGLIZ, O‘ZBEK VA RUS TILLARI MISOLIDA)

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.4.PhD/Fil1448 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Qayumova Munavvar Sanoqulovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar: Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 22 » aprel soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (644 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 8 » aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil « 8 » aprel da 26-04 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.I.Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

O.O.Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

O.M.Fayzulloyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining rivojlanishi va takomillashuvi, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning yanada mustakamlanishi jarayonida, inson lisoniy zaxirasining muhim qismi hisoblangan soha tushunchalarini ifodalovchi terminlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib, terminlarning nutqdagi vazifasi, maqsadi va mohiyatini tadqiq etishga bo‘lgan zarurat ham kuchaymoqda. Bu zaruriyatlar sohaviy terminologiyani ma’lumotlar bilan boyitish, sohaga oid ma’lumotlar bazalarini tashkil etish, elektron lug‘atlar, onlayn platformalar, axborot qidiruv tezauruslarini yaratishga doir nazariyalarni ilmiy baholash imkonini beradi. Yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan konchilik terminlari tilning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, konchilik terminlarini tahlil qilish orqali, nafaqat tilshunoslik, balki iqtisodiyot, texnologiya va ilm-fan kabi sohalardagi o‘zgarishlarni kuzatish va ilmiy o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dunyo tilshunosligida konchilik sohasi terminologiyasining muloqot sharoitida qo‘llanilishini yoritish hamda kommunikativ maqsadni ro‘yobga chiqaradigan lisoniy usullarning leksikografik jihatini tahlil qilishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar izchil amalga oshirilmoqda. Ammo tadqiqotlarning aksariyat qismi faqat bir til uchun xos bo‘lib, qardosh bo‘lmagan tillardagi konchilik tushunchalarini ifodalovchi terminlarning farqli va o‘xshash xususiyatlarini chog‘ishtirish, tarjima muammolari, monosemantik mexanizmlar modeli va lingvistik xususiyatlari, konchilik sohasiga doir terminlarning izohli lingvistik platforma korpusini yaratish, ularning kognitiv-kategorial vazifalari, pragmatik-konseptual qiymatini hamda innovatsion taraqqiyot istiqbollarini belgilash uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimizda konchilik sanoati terminologik apparatini antropotsentrik yo‘nalishda tadqiq etish, konchilik diskursida kommunikativ maqsadlarga mos keluvchi va semantik jihatdan mazmun yaratishga xizmat qiluvchi terminlarning ekspressiv-ilmiy ifoda imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Respublikamiz terminologlari va leksikograf olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar kontekstida konchilik sanoati terminlarining amaliy qo‘llanilish darajasidan qat’i nazar, ularni umumlashtirish, xalqaro miqyosda keng qo‘llanilayotgan inglizcha terminlarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini aniqlash, ularning lingvistik-izohli tavsifini berish va adekvat tarjima tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda “... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”¹ ga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, hozirgi kunda turli tizimli tillarni chet tilidagi konchilik terminlarning tilshunoslik mezonlari asosida o‘rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 6-son. 70-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-son “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-iyundagi PQ-295-son “Mis va noyob metallar xom ashyosini qayta ishlashning texnologik zanjirlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida texnika sohaslariga oid terminologiyaning ayrim jihatlari atroflicha o‘rganilgan. Texnikaga doir terminlarning leksikografik jihatdan shakllanishi va takomillashish xususiyatlari, umumiy va sohaviy terminologiya masalalari B.T.Atkins, M.Rundel, R.R.Hartmann, F.Durkin, H.Bergenholtz, V.Tarp, V.V.Vinogradov, A.V.Gorelova, T.L.Kandelaki, I.D.Klenin, D.S.Lotte, A.L.Pumpyanskiy, A.A.Reformatskiy, A.L.Semenas, N.V.Solnseva, V.D.Tabanakova, Y.N.Tolikina² kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Ammo aynan konchilik terminologiyasi hatto jahon tilshunosligida ham juda kam o‘rganilgan. Xususan, Jan H.Kroeze, Machdel C.Matthee, Theo J.D.Bothma³ va Singapurlik olimlardan Yiping Jin Min,

²Atkins B.T., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. New York. Oxford University Press, 2008. – 553 p.; Hartmann R.R.K. Lexicography: Principles and Practice. – London: Academic Press, 1983. – 200 p., Durkin Ph. The Oxford Handbook on Lexicography. Oxford University Press: 2016. – 700p.; Bergenholtz H., Tarp V. Manual of Specialized Lexicography: The Preparation of Specialized Dictionaries. Amsterdam. Philadelphia: -1995. – 255 p.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С.75-87; Лотте Д.С.Образование системы научно-технических терминов//Основы построения научно-технической терминологии. – М.:АНССР, 1961. – 160с.; Пумпянский А.Л. Введение в практику перевода научной технической литературы на английский язык. – М.: Наука, 1965. – 304с., Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.:Аспект Пресс, 2004. – С 115-126; Табанакова В.Д.Идеографическое описание научной терминологии. – Тюмень: Изд-во Тюмен. Гос. Ун-та, 1999. – 200с.; Толикина Е.Н. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1970. – 230с.; Ильичева Н.В., Горелова А.В. Видеоматериалы как средство развития коммуникативной компетенции на занятиях по английскому языку // Самарский нац. исслед-ий университет. 2018. – С.149-158; Кленин И.Д. (в соавторстве с Евсюковым Ю.М. и др.) Русско-китайский политехнический словарь. – М.: Физмат, 1960. – 130с; Семенас А.Л. Лексикология современного китайского языка. – М.: Наука, 1992. – 278с.

³Jan H. Kroeze, Machdel C.Matthee, Theo J.D.Bothma. Different data and text-mining terminology// https://www.researchgate.net/publication/324571385_Differentiating_data_and_text-mining_terminology;

Yen Kan, Jun-Ping Ng, Xiangnan⁴lar tomonidan konchilik terminologik tizimi ilmiy jihatdan yanada rivojlantirildi.

Mamlakatimiz tilshunosligida S.Abdiyev, S.Akobirov, A.Xojiyev, R.Doniyorov, A.Madvaliyev, A.Mamatov, X.D.Paluanova, A.Usmonov, N.Kosimov, A.Xojiyev, B.Maxammadov⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida texnikaga oid terminologik tizim bo'yicha masalalar o'rganilgan. A.Abduraxmonov, I.B.Nasridinov va M.Qayumovalar⁶ rus va ingliz tillaridagi konchilikka doir terminlarning o'zbekcha izohli lug'atini yaratish orqali konchilik terminologiyasi va terminografiyasining ayrim nazariy va amaliy masalalariga qo'l urdilar. G.X.Nurmatova, N.Z.Abdurahmonovalarning "Kon-sanoat sohasidagi terminologik birliklarining lug'ati"⁷ orqali konchilik terminologiyasi ibora va termin birliklarining ba'zi jihatlari o'rganilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hattoki jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar tahlili orasida ham konchilik terminlarining nazariy va amaliy masalalarini chuqur tahlil qilgan holda konchilikka oid terminlarning uch til doirasidagi terminlar lug'ati juda kam yaratilganligi va mazkur sohada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud.

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi ilmiy ishlardan farqi shundaki, o'zbek tilida konchilikka oid terminlarning uch til kesimida chog'ishtirma tarzidagi leksikografik tadqiqi maxsus monografik ishlar va ilmiy tadqiqot ishlarining obykti, jumladan, ingliz tilidagi konchilikka oid terminlarni o'zbek tiliga o'zlashgan muqobillari bilan chog'ishtirish, ularning tuzilishi va leksik xususiyatlari, differensial, sintaktik va semantik belgilari o'rtasidagi jihatlari aniqlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasining "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik masalalari hamda leksikologiya va terminologiya muammolari" yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, o'zbek va rus tillaridagi konchilik terminlarining leksikografik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

⁴Yiping J.M., et al. Mining scientific terms and their definitions: A study of the ACL anthology // Proceedings of the 2013 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, P.780 – 790;

⁵ Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Т.:Фан, 1977. – 160 б.; Усмонов А.Н. Ўзбек тилида термин ясовчи фаол аффикслар. – Т.: 1991.; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион хусусиятлари. – Тошкент: "Фан ва технология", 2016 – 152 б.; Мадвалиев А., Ҳаққул И. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Фан, 2017. – 382 б.; Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.:Фан, 1996. – 48 б.; Абдиев С. Ўзбек тилининг соҳавий лексикасини тадқиқ этиш: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003; Ақобиров С. Тил ва терминология. – Т., Ўзбекистон КП МКнинг бирлашган нашриёти, 1968. – 39 б.; Косимов Н. Функциональные особенности аффиксов в узбекской технической терминологии: Дисс. канд. ... филол. наук. – Т., 1979., Mahammadov B.I. Android operation tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek, rus, ingliz tillarida berilishi: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD) ... disser. avto-ref. – А., 2023. – 24 б.

⁶ Абдурахмонов С., Қаюмова М., Ахтамов Ф. ва бошқалар. Русча-инглизча металлургия терминларининг ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2017. – 884 б

⁷ Nurmatova G., Abduraxmonova N. Kon-sanoat sohasidagi terminologik birliklarning tarjima lug'ati. – Т.: GlobeEdit, 2023. – 265б.

Tadqiqotning vazifalari:

konchilik sohasi terminologiyasining inglizcha, o‘zbekcha va ruscha izohli terminologik lug‘atlardagi talqinining qiyosiy-tipologik aspektida chog‘ishtirma tarzda dalillash;

konchilik sohasiga doir terminlarni terminografiya talablari asosida mantiqan izchillik va ommaboplik nuqtayi nazaridan samaradorligini oshirish;

ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi konchilik sohasiga doir terminlarning izohli lingvistik platforma korpusini yaratish, hamda amaliy va nazariy ma’lumotlar vositasida uning takomillashgan imkoniyatlarini isbotlash;

ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid izohli terminologik lug‘atlardagi kamchiliklar bilan bir qatorda yutuqlarni umumlashtirib, konchilikka doir terminologik lug‘atlarning qiyosiy nashrlari uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida lug‘atlardagi konchilik terminologiyasini aks ettiruvchi ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi konchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda leksikografik, qiyosiy-tarixiy, transformatsion, lingvistik, statistik, substitutsiya va distributsiya modeli usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid terminlarning asosiy monosemantik tuzilishi terminning izohini kengayish mexanizmi; izohning toraytirish mexanizmi; tuzilmalarning o‘xshashligiga asoslangan izohlarni ko‘chirish mexanizmi; ifodalangan tuzilma bo‘yicha metonimik ko‘chish mexanizmlari ustuvorligida namoyon bo‘lishi aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillarda konchilik sohasiga oid terminlar to‘plamini yaratishda umumiste’moldagi so‘zning ilmiy tushunchasini yaratish, qo‘llash va so‘zning ma’nolarini o‘zgartirish orqali terminlar toifasiga o‘tkazish; terminologik konvertatsiya; terminologik derivatsiya; boshqa tildan uning asosiy ta’rif parametrlarini saqlagan holda fonetik-morfologik moslashuv bilan o‘zlashtirish usullarining samaradorligi asoslangan;

ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid terminologik elektron lug‘atlarning leksik-semantik, struktur-semantik, kontekstual-pragmatik, konseptual-kognitiv munosabatdosh birliklar bazasini yaratish, milliy korpus asosida parallel tillar korpusini takomillashtirish, tarjima lug‘atlari hamda o‘zbek tili milliy korpusi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik qonuniyatlari doirasida qiymat kasb etishi dalillangan;

qiyoslanayotgan boshqa tillar terminologik tizimidan terminlarni o‘zlashtirish, sinonim va omonimlarni yaratish, terminlarni shakllantirish usullari o‘zbek konchilik terminologiyasidagi terminlarning leksikografik xususiyatlarini tashkil etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konchilik sohasiga oid terminlarning funksional-semantik qo'llanishining distributsiya modeli lug'at tuzish amaliyotida ishlab chiqilgan va konchilikka oid terminologik tizim tamoyillari takomillashtirilgan;

konchilik sohasiga oid terminlarning leksikografik tadqiqi hamda semantik talqini ingliz, o'zbek va rus tillaridagi qo'llanilishi va ularning lingvistik xususiyatlari ochib berilgan, shu asosda uch tilli (inglizcha-o'zbekcha-ruscha) konchilik sohasiga oid terminlar lug'ati tuzilgan va elektron mobil ilova dasturi yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi №DGU 4291-sonli ma'lumotnomasi, 2024-yil);

ushbu ilmiy tadqiqot ishining materiallaridan tillarning funksional-kognitiv lug'atini tuzishda, xorijiy tillarni turli soha, bosqich va maqsadlarda o'qitishda, davlat ta'lim standartlarining mazmuniy me'yor va komponentlarini tuzishda o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va tarjima jarayonlarida foydalanish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy tilshunoslikda foydalanilgan ilmiy-tadqiqot metodlari hamda nazariy ma'lumotlar yordamida ingliz, o'zbek va rus tillaridagi XX asr oxiri XXI asrda yaratilgan konchilik diskursiga tegishli ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, ommabop qo'llanma va boshqa ma'lumotnoma xarakteridagi matnlar, izohli va tarjima lug'atlaridan olingan misollar tahlili, ilmiy jihatdan asoslangan nazariy xulosalar, konchilik sohasiga oid terminologiyaning diskursdagi kognitiv-pragmatik imkoniyatlari asosida ularning lingvokulturologik xossalari umumiy nazariy xulosalar hamda amaliyotga keng ko'lamda joriy etilayotganligi tadqiqot ishining ishonchliligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda turli tizimli tillar (ingliz, o'zbek va rus tillari)dagi konchilik sohasi terminlarini chog'ishtirish asosida ularning funksiyasi va semantik xususiyatlarini qiyosiy aspektda qilingan leksikografik tadqiqi xulosalari konchilik terminlarining morfologik va semantik tuzilishi hamda ularning izohlari haqida tizimli nazariy bilimlarni shakllantirish, uning natijalari konchilik sohasi terminologiyasiga oid keyingi ilmiy tadqiqot ishlari uchun nazariy manba vazifasini o'tashi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, u konchilik sohasidagi terminlarning izohli terminologik lug'atlarga kiritilish talablari asosida tahlil qilinishi konchilik sohasi mutaxassislari, leksikograflar va terminograflar tomonidan tuzilladigan konchilik terminlari lug'atlarining keyingi nashrlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi, oliy ta'lim tizimida leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, terminografiya fanlarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar jarayonida tadqiqot ishi materiallaridan keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi konchilik terminlarining leksikografik tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

ingliz, o'zbek, va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid terminlarning asosiy monosemantik tuzilishi terminning izohini kengayish mexanizmi; izohning

toraytirish mexanizmi; tuzilmalarning o'xshashligiga asoslangan izohlarni ko'chirish mexanizmi; ifodalangan tuzilma bo'yicha metonimik ko'chish mexanizmlari ustuvorligida namoyon bo'lishiga doir nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan "Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 29-dekabrda 876/1-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot jarayonida statistik va komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan bo'lib, olingan ilmiy natijalar nazariy va amaliy jihatdan mustahkam asos bo'lib xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillarda konchilik sohasiga oid terminlar to'plamini yaratishda umumiy va milliy tildagi so'zning ilmiy tushunchasini ifodalash, qo'llash va so'zning ma'nolarini o'zgartirish orqali terminlar toifasiga o'tkazish; terminologik konvertatsiya; terminologik derivatsiya; boshqa tildan uning asosiy ta'rif parametrlarini saqlab, fonetik-morfologik moslashuv bilan o'zlashtirish usullarning samaradorligiga doir nazariy xulosalardan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan Fz-20190718s – "Sust o'tkazuvchi uran rudalari yer ostida tanlab eritish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 2024-yil 04-aprelda 1-04/841-son ma'lumotnomasi). Natijada konchilik sohasiga oid terminlarning semantik talqini ingliz, o'zbek va rus tillaridagi qo'llanilishi va ularning leksikografik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

ingliz, o'zbek va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid terminologik elektron lug'atlarning leksik-semantik, struktur-semantik, kontekstual-pragmatik, konseptual-kognitiv munosabatdosh birliklar bazasini yaratish, milliy korpus asosida parallel tillar korpusini takomillashtirish, tarjima lug'atlari hamda o'zbek tili milliy korpus o'rtasidagi bevosita bog'liqlik qonuniyatlari doirasida qiymat kasb etishiga doir nazariy xulosalardan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 2020-2021 yillarda bajarilgan UniCEN – Central Asia University Partnership Program dasturi doirasida Xalqaro ta'lim bo'yicha AQSh Kengashi (American Councils for International Education) tomonidan moliyalashtirilgan "Capacity Building Initiative" mavzusidagi xorijiy loyihasida foydalanilgan (Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 2024-yil 24-oktyabrda 1-04/2855-son ma'lumotnomasi). Natijada konchilikka doir terminologik lug'atlarning qiyosiy nashrlari uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan boshqa tillar terminologik tizimidan so'z va terminlarni o'zlashtirish, sinonim va omonimlarni yaratish, terminlarni shakllantirish usullari o'zbek konchilik terminologiyasidagi terminlarning leksikografik xususiyatlarini tashkil etishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasida "Diyor 24", "Najot bilimda", "Ta'limdagi islohot" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati

teleradiokompaniyasi 2023-yil 12-dekabrda 01-02/199-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy terminologiyaning rivojida o'zining alohida ahamiyatga ega bo'lgan nazariy va amaliy takliflar lavhada o'z aksini topib, materiallarning mazmuni mukammallashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Konchilik sohasi terminologik tizimi tadqiqining ilmiy – nazariy asoslari**" deb nomlangan dastlabki bobi uch faslni o'z ichiga olgan. Bobning "*Konchilik terminlarining ta'rifi va shakllanish tarixi*" nomli birinchi faslida konchilik terminlarining tarixiy, serqirra hodisalari va ularning jamiyat uchun shakllanish ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy izlanishlar tahlil qilingan.

Tilshunoslik sohasida terminlarni qiyosiy aspektda o'rganish muammolariga bag'ishlangan bir qator ishlar T.Alesenko, I.Bushin, S.Makeyeva, M.Lazareva, Ye.Trushina, T.Rijenkovalar⁸ tomonidan bajarilgan, jumladan O.V.Borxvaldt,

⁸ Алесенко Т. А. Особенности формирования современных межотраслевых терминологий: на материале сопоставительного анализа терминологии экологии воды в английском и русском языках: дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 209с.; Бушин И.В. Формирование вторичных терминотем и их специфика: на материале терминологии судеб. медицины рус. и англ. языков: дис. ... канд. филол. наук. – Саратов, 1996. – 241с.; Макеева С.О. Сопоставительное исследование терминологии сферы образования в аспекте прагматики и субъективной модальности: на материале англоязычных и русскоязычных текстов: дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2002. – 256 с.; Лазарева М.А. Сопоставительный анализ метеорологической лексики английского и русского языков: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 199 с.; Трушина, Е.В. Терминотемы криминалистики и криминологии в рамках когнитивного терминоведения (в русском и французском языках): дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005. – 185с.; Рыженкова Т.В. Специфика процесса транстерминологизации в отраслевой терминотеме: на материале русской и английской терминологии правоведения: дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2001. – 187с.

Yu.M.Sishuk, V. P.Trush, G.Velaskes, H.Estaylar⁹ kabi mashhur tilshunoslar tog‘-
kon terminologiyasi ustida ish olib borgan.

Konchilik terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini, terminlarni kelib
chiqish manbalarini yaxshiroq tushunish maqsadida Angliya, O‘zbekiston va
Rossiyada konchilik sanoatining rivojlanishiga e’tibor qaratilgan.

Angliya va Rossiya tog‘-
kon sanoati bilan bir qatorda O‘zbekiston tog‘-
kon sanoati ham qadim zamonlarga borib taqaladigan boy tarixga ega. O‘rta asrlarda
falsafa, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, metallshunoslik, tarix,
xullas tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlardan birdek ilmga ega bo‘lgan Muhammad
Muso Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniyning
muborak nomlari tarix sahifalariga abadulabad muhrlangan. Ularning buyuk dahosi
bugungi yuksak texnologiyalar asri uchun zarur bo‘lgan kashfiyotlarni taqdim
etayotganligi esa isbot talab qilmaydi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “*Konchilik terminologiyasi va terminografiyasi
tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida*” deb nomlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik obyekt til tavsifining turli darajalarida
qo‘llaniladi. Obyekt strukturasi til sohasining xususiyatlariga ega bo‘lgan turli
tillar tizimining barcha elementlari birikmasidir. Lingvistik obyekt quyidagi
muayyan xususiyatlarga ega: lingvistik obyekt – bu tillarda strukturaviy
munosabatlar bilan o‘zaro bog‘langan elementlar yig‘indisi; tillarda yagona
vazifani bajaradigan, ya’ni tushuntirishning ma’lum bir qismini yaxshilaydigan
sohada tashkil etilgan elementlarning semantik umumiyligi; termin komponentlari
ixtisoslashgan, tizimli ravishda til obyekti funksiyalarini bajarish uchun ishlatiladi,
til obyektining vazifasi boshqa komponentlarga nisbatan eng keng tarqalgan bo‘lib,
lingvistik obyekt leksikografiya uchun majburiy hisoblanadi; turli sohalar bir-biri
bilan qisman bog‘liqligi hamda aloqadorligi¹⁰.

Turli tillarda sohaga oid ilmiy va texnik terminlar to‘plamini yaratishda
quyidagi asosiy usullar qo‘llaniladi: 1. Umumiy va milliy tildagi so‘zning ilmiy
tushunchasini ifodalash, qo‘llash va so‘zning ma’nolarini o‘zgartirish orqali
terminlar toifasiga o‘tkazish: “*entry*” so‘zi umumiy lug‘atda “*kirish*” (binoga
kirish joyi) ma’nosida ishlatiladi, konchilik terminologik lug‘atlarda esa “*kon
lahimi*”- yer ostida qazish ishlari olib borilishi natijasida hosil bo‘lgan sun’iy g‘or-
yo‘lak ma’nosida ishlatiladi. 2. Terminologik konvertatsiya - mavjud termini
qayta ko‘rib chiqish va fanlararo omonimga aylantirish bilan bir fandan boshqasiga
o‘tkazish: a) geologiya sohasidan kirib kelgan terminlar: *geological section* –
geologik qism – *геологический разрез*; *dip angle* – *tushish burchagi* – *угол*

⁹Борхвальдт О.В. Лексика золотопромышленности в аспекте исторического терминоведения русского языка: Авто-реф. дис... д-ра филол. наук. Красноярский гос. пед. ун-т, 2000. – 56 с.; Сишук Ю.М. Современный немецко-русский словарь по горному делу и экологии горного производства. М.: Руссо, 2003. – 584 с.; Thrush P.W. A dictionary of mining, mineral, and related terms.- Washington, D.C.:U.S.Department of the Interior, Bureau of Mines, 1968. – 1269 p.;Velásquez G., Estay H., Vela I., Salvi S., Pablo M. Metal-Selective Processing from the Los Sulfatos Porphyry-Type Deposit in Chile: Co, Au, and Re Recovery Workflows Based on Advanced Geochemical Characterization. // Minerals. 2020. № 10. 531p.;

¹⁰ Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – С.145-167.

надения. b) kimyo va mineralogiya sohasidan kirib kelgan terminlar: *lithology composition* – *litologik tarkib* – *литологический состав*; *granularity–granulometriya tarkibi* – *гранулометрический состав*; *hydrocarbon–uglevodorod* – *углеводород*. 3. Terminologik derivatsiya - ayrim komponentlarga ustunlik beruvchi so‘z yasash turi – termin elementlari va kompozitsion modellar va hosila so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, qisqartirilgan so‘zlar va iboralarni mustaqil yasash: *orebed* – *ruda koni* – *рудное месторождение*; *rockhead* – *qattiq tog‘ jinsning yuqori qatlami* – *верхний слой крепкой породы*; *limestone* – *ohaktosh* – *известняк*. 4. Terminni boshqa tildan uning asosiy ta’rif parametrlarini saqlab yoki aniqlab, fonetik-morfologik moslashuv bilan o‘zlashtirish: *graben* – *graben* – *грабень* (yer po‘stining ko‘tarilgan qismlariga nisbatan cho‘kkan va yoriqlar bilan chegaralangan qismi); *detritus* – *detrit* – *детрит* (cho‘kma tog‘ jinslarida yoki cho‘kmalardagi organogen materiallarning parchalari).

Sohaviy terminlar haqida so‘z borganda, oddiy termin bilan bir qatorda qat’iy leksik ma’noga ega bo‘lgan “terminologik birikma” kabi tushunchani e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. L.B.Tkacheva terminologik birikmalarni “ikki, uch yoki undan ortiq elementlarni birlashtirish natijasida hosil bo‘lgan ko‘p komponentli, alohida tuzilgan semantik integral birikmalar” deb ataydi: *hammer hand drill* – *zarbali qo‘l perfarator* – *ударный ручной перфоратор*, *low coal mine* – *past ko‘mir koni* – *низкая угольная шахта*, *open cut mining* – *foydali qazilmalarni qozib olish* – *открытая добыча полезных ископаемых*¹¹.

Bobning uchinchi fasli “Konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug‘atlarga kiritilishi” deb nomlangan. Sohaviy xususiyatga ega termin tizimlarining terminologik lug‘atlarda shakllanishi va termin yasash jarayonlarini o‘rganish muammosi tilshunoslikning eng muhim muammolaridan biridir.

Ingliz, o‘zbek, rus tillari konchilik sohasi terminologik lug‘atlarida ilmiy tadqiqot uchun terminlar tanlash, hamda lug‘atning maqsadi va turi, termin tanlash jarayoniga ta’sir qilishi, terminologik lug‘at uchun til birliklarini tanlash ba’zi bir aniq tamoyillar bilan farqlanadi va terminologik lug‘atning tarkibi shunday tahlillanadi: 1. Sohaviy bir so‘zli terminlar: *ohaktosh* – *известняк* - *limestone*, *ruda* – *руда* - *ore*, *g‘alvir* – *пешето* – *sieve*; 2. Sohaviy terminologik birliklar: a) termin-biriklar ya’ni, kognitiv terminologiya: *tosh maydalash mashinasi* – *каменная дробилка* – *stone crusher*, *yer osti boyliklari* – *подземные ресурсы* – *underground resources*; b) erkin terminologik birliklar: *strategik tunel* – *стратегический туннель* – *strategic tunnel*, *hayot xavfsizligi qoidalari* – *rules of life safety* – *правила безопасности жизнедеятельности*, *unumdorlik* – *плодородие* – *fertility*; 3. Qisqartma terminlar: *AZO...* [“azot” so‘zidan < a...+ yun. *zoos* – *tirik, jonli*] – *kimyoviy birikmalar nomlarining tarkibiy qismi bo‘lib, azot va uning birikmalariga tegishli degan ma’noni anglatadi: azobenzol, azobirikmalar, azobo‘yoqlar, azot guruhi* – *AZO...* [от слова «азот» < a...+ от

¹¹ Ткачёва Л.Б. К проблемам терминологизации образовательного процесса. // Сб. науч. трудов: Методико-педагогические аспекты терминологии и перевода. – Омск: Изд-во ОмГТУ, 2006. – С. 12-25.

греч. *Zoos* – живой] – компонент названий химических соединений, означающий азот и его соединения: азобензол, азосоединения, азокрасители, азогруппа - AZO... [from the word "azot < a...+ from Greek zoos – living] – is a component of the names of chemical compounds, meaning nitrogen and its compounds: azobenzene, azo compounds, azo dyes, azo group¹²; 4. Nomenklatura – ma'lum bir bilim sohasining aniq obyektlarining nomlari: NMZ – Navoiy mashinasozlik zavodi – НМЗ – Навоийский машиностроительный завод – NMC – Navoi machine- building combinat; (soha nomenklaturasi nomlarini terminologik lug'atga kiritish masalasi ochib berilgan; uning yechimi har bir aniq holatda muallif zimmasiga vazifa sifatida yuklatilgan).

“Konchilik terminologiyasining monosemantik birligi va mavzuiy guruhlari” deb nomlangan ikkinchi bobning dastlabki faslida Ingliz, o'zbek va rus tillari konchilik terminlarining leksikografik jihatdan monosemantik tuzilish mexanizmlari o'rganilgan.

Ingliz, o'zbek, va rus tillaridagi konchilik sohasiga oid terminlarning asosiy monosemantik tuzilish mexanizmlari quyidagilarni deb bilamiz: konchilikka oid terminlarning izohini kengayish mexanizmi; konchilik sohasiga oid termin izohini toraytirish mexanizmi; konchilik sohasiga oid termin tuzilmalarining o'xshashligiga asoslangan izohlarni ko'chirish mexanizmlari; konchilik sohasi terminlarining ifodalangan tuzilma bo'yicha metonimik ko'chishi mexanizmlari.

Terminlarni boshqa tizimlardan o'zlashtirish ham juda keng tarqalgan. Buni quyidagi terminlarda ko'rish mumkin: *yuk mashinasi* – *haultruck* – *автомобиль* umumiy ma'noda yuk mashinasini, konchilikda esa shaxta samosvalini bildiradi; *kobalt* – *cobalt* – *кобальт* bu terminning izohi kimyoviy elementdan qizil rangli qattiq kumush-oq metallga o'tkazish bilan kimyo tizimidan olingan.

1. O'zbek tili so'zlari va o'zlashmalarning parallel qo'llanishi ham sinonimiyaga olib keladi: *konchi* – *miner* – *горняк*; *yuk ko'taruvchi (usta)* – *steigen* – *подъемщик*; *marksheyder (kon o'lchovchisi)* – *mining surveyor* – *маркшейдер (горный инженер)*.

2. Tilning hududiy yoki ijtimoiy shevalar bilan o'zaro ta'siri. Shunisi e'tiborga loyiqki, inson faoliyatining rivojlanishi jarayonida umumiy lug'at tarkibidan borgan sari ko'proq so'zlar terminologik muomalaga kiritildi. V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek: “Fan lug'ati bilan kundalik hayot lug'ati o'rtasida bevosita, chambarchas bog'liqlik mavjud. Har qanday fan xalq tafakkuri va nutqi natijasida olingan hosilasidan boshlanadi va uning keyingi rivojlanishida uzilmaydi”¹³.

3. Konchilik terminologiyasi asosida xulosa qilishimiz mumkinki, o'zbek konchilik terminologiyasida terminlarni shakllantirishning leksikografik jihatdan eng keng tarqalgan monosemantik usuli boshqa tillardan, termin tizimlaridan yoki umumiy lug'atlardan terminlarning olishdir: *drenaj stovoli* – *дренажный ствол* – *drainage shaft*; *dumkar* – *думпка* – *dumpcar*.

¹² Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirahmedova Z., Saidno'monov A. Xalqaro terminelementlarning izohli-illyustrativ lug'ati. – Toshkent: “Donishmand ziuosi” nashriyoti. – 2023. – B. 53.

¹³ Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 30-37.

4. Ko‘rib chiqilgan boshqa tillardan yoki terminologik tizimlardan so‘z va terminlarni o‘zlashtirish, sinonim va omonimlarni yaratish, shuningdek, terminlarni shakllantirish usullari o‘zbek konchilik terminologiyasidagi terminlarning leksikografik va bir ma‘noli xususiyatlarini aks ettiradi, ular lug‘atlarda tez-tez qo‘llaniladi: *filtrlash – фильтрация – filtration; komponent – компонент – component; jadval – график – graph.*

Bobning ikkinchi fasli “Konchilik sohasiga oid terminlarning mavzuiy guruhlari” deb nomlanadi. Ushbu faslda ilmiy – texnik yo‘nalishlardagi terminologik lug‘atlarning tahlili juda qiziqarli jarayon sifatida ochib berilgan.

Konchilik terminologiyasining asosiy mavzuiy guruhlarda ifodalanishi: 1. Qurilma-uskunalar: materiallar, asboblar, mexanizmlar va mashinalar, yarim tayyor mahsulotlar, qismlar, konstruksiyalar va boshqalar: *tog‘ jinslari – горные породы – rocks; ekskavator – экскаватор – excavator; qisqich – зажим – socket/wirerope/spider.* 2. Jarayonlar (harakat, hodisalar): *qazib olish – горная выработка-excavation; bukilish – изгиб – bend; chang qo‘nish jadalligi – интенсивность пылепопступления – dust inflow intensity.* 3. Xususiyatlar – sifatlar – holatlar: *tog‘ jinsining tutash mustahkamligi – контактная прочность горной породы – contact strength of mining rock;* 4. Miqdoriy ko‘rsatkichlar: fizik va geometrik miqdorlar, barcha turdagi hisoblash tushunchalari: *Karat – карат – carat – (200 mg ga teng bo‘lgan tizimsiz massa birligi. Qimmatbaho toshlar va marvaridlar massasini ifodalash uchun zargarlik buyumlaridan foydali); Kub meter – Кубический метр – Cubic meter (kubometr) (m³) (Xalqaro birliklar tizimida (SI), shuningdek, ICGSS va MTS birliklarida olingan hajm birligi); Ma‘danli koeffitsiyent – Коэффициент рудоносности – Ore content coefficient (konditsion ma‘dan massasining (hajmining) hisoblab aniqlangan geologik blokda ma‘dan va qoplovchi tog‘ jinsining umumiy hajmiga nisbati).* 5. Jarayon va usullar (nazorat qilish, texnologik jarayonlarni amalga oshirish va boshqalar): *Qattiq, suyuq va gazsimon minerallarni qazib olish jarayonini amalda qo‘llash Shelf yoki kontinental shelf–quruqlikka tutashgan va relyefning umumiy xususiyatlari va geologik tuzilishi bilan ajralib turadigan qit’a suv osti chegarasining tekislangan hududi mexanizmi.*

Konchilikka oid nazariya, hodisa va jarayonlarni ifodalovchi terminlar terminologiyaning aniqligi uchun nafaqat tushunchalar toifalarini, balki ushbu turkumlar doirasidagi tushunchalarning ifodalovchi turlarini ham terminologik jihatdan ajratish juda muhim deb hisoblanadi:



1- rasm. Sohaviy lug‘at tushunchalari

Terminlarda mavzu, jarayon, tartib, hodisa, nazariyalarni ifodalovchi tushunchalarni maxsus sohaviy terminlarning shakllanish va takomillashish jarayonining, qoida tariqasida, ikki tarixiy bosqichdan - stixiyali va tashkiliy bo‘lib qoladi. Agar birinchisi professional ilmiy konchilik sohasining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi uning takomillashuviga yuqori darajadagi ta‘sir bilan bog‘liq.

Bobning uchinchi fasli “*O‘zbek tili konchilik terminologiyasi va termografiyasining muammoli masalalari*” deb nomlangan. Ushbu faslda terminologiyaning eng dolzarb muammolari - alohida termin va terminologik tizimlarning kelib chiqishi va rivojlanishi, terminologiyada milliy va xalqaro o‘zaro bog‘liqlik, terminlarning shakllanish yo‘llari va vositalari, terminologiya nominatsiyasining xususiyatlari o‘rganilgan. Terminlarning yasalishi murakkab jarayon bo‘lib, terminlarning miqdoriy o‘sishi bu jarayonning faqat yakuniy natijasidir.

O‘zbek tilidagi konchilik sohasiga oid matnlarni tarjima qilganimizda, ko‘pincha terminologiyaning tillar orasidagi tafovutlari va tarjima jarayonidagi muammolar yuzaga keladi. Ularning ayrimlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tamiz: konchilik terminlarining ta‘riflarini o‘z ichiga olgan bazaviy tushunchalar va asl izoh orasidagi qiyos yetishmasligi: *zaryad (konchilikda – Patron, snaryad va shu kabilardagi portlovchi modda miqdori; filologik – Elektrlangan jismdagi elektr miqdori); konchilik sohasidagi mavjud terminlarning noto‘g‘ri yoki noadekvat talqin qilinishi; rubilnik – o‘zgarmas va o‘zgaruvchan zanjirlarni qo‘l bilan ulash va uzish uchun mo‘ljallangan; noto‘g‘ri talqin – rus tiliga adashtirib chopish ma‘nosida; turli tillardagi konchilik sohasi tizimlaridagi turli ko‘rinishdagi allomorflar (bunda konchilik sohasiga oid manbalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganda kelib chiqadigan kamchiliklar nazarda tutiladi); mavjud terminlarning qisqa “davr”da qo‘llanilganligi, hamda vaqt o‘tib terminlarning qo‘llanilmasligi; qisqartmalar – PM – portlovchi modda; Hz-gers, o‘lchov birligi; ko‘p ma‘noli terminlar – lahm, tarmoq, frontal qazib olish.*

Konchilik terminlarini tadqiq qilish jarayonida konchilik sohasidagi zamonaviy o‘zbek terminografiya nazariyasining asosiy muammolari quyidagilar: konchilik sohasidagi terminologik lug‘atlarning juda ozligi va ularni yaratishning uslubiy tamoyillarini ishlab chiqish; konchilik sohasidagi lug‘atlarning ilmiy asoslangan tipologiyasini yaratish; lug‘atning turli maxsus va tegishli qatlamlarini (tezaurus jihatdan) tavsiflash uchun konchilik sohasida invariant (o‘zgartirib bo‘lmaydigan narsani anglatuvchi termin turi) qoralama lug‘atni ishlab chiqish; o‘zbek tili konchilik sohasidagi terminologik lug‘atlarning asosiy parametrlarini aniqlash va takomillashtirish; o‘zbek tilidagi konchilik sohasi terminografiyasi uchun asosiy talablarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash; konchilik sohasidagi yaratilajak lug‘atning makro va mikrotuzilmasini tahlil qilish; konchilik terminlarini izohlashning asosiy texnika va usullarini ishlab chiqish; konchilik terminologik lug‘atlarni yaratishda IT texnologiyasidan foydalanish; konchilik

sohasi terminologiyasi ma'lumotlar bazasi korpusi va avtomatlashtirilgan platformalarini yaratish.

Dissertasiyaning **“Ingliz, o‘zbek va rus tillari konchilik terminlarining leksikografik jihatdan qiyosiy tipologik tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobining *“Konchilikka doir terminlarning leksikografik xususiyatlari”* nomli birinchi faslda sohaviy terminologik ilmiy manbalarda terminlarni tizimlashtirish masalasining alohida ahamiyati asoslab beriladi. *Lug‘at* – muayyan til jamoasining amaliy nutqidan olingan birliklar asosida tuziladigan bo‘lib, unda har bir til shaklining mazmuni foydalanuvchi uchun tushunarli tarzda izohlanadi hamda ushbu birlikning til tizimidagi qo‘llanishiga oid muhim faktlar yoritiladi. Shu jihatdan, lug‘at ijtimoiylashgan, ya‘ni til tizimida barqarorlashgan til birliklarining tartibga solingan va tizimlashtirilgan majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Terminologik lug‘at – lingvistik lug‘atlarning bir turi bo‘lib, unda bilim sohasi (yoki bir necha sohalari) terminologiyasi berilgan. Terminologik leksikografiya lug‘atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi.

Lingvistik korpus – tilshunoslikning matn korpusini ishlab chiqish, yaratish va ishlatish bilan shug‘ullanadigan bo‘limi bo‘lib, kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan korpuslarni yaratish amaliyotining rivojlanishi bilan bog‘liq. Shunday qilib, tahlil, tarjima va tavsiflash jarayonida konchilik sohasiga oid terminlarni turli mezonlar bo‘yicha umumiy, ilmiy va texnik hamda umumiste‘moldagi terminologik lug‘atlardan ajratib olindi. Shu qatorda, umumiy lug‘atlardan Oxford English Dictionary lug‘atidagi 180 000 so‘zdan ingliz tilidagi 375ta (0.21%), S.Ojegovning rus tilining izohli lug‘atidan 80 000 so‘zdan 214ta (0.26%), hamda, A.Madvaliyev tahriri ostida tuzilgan o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi 80000 so‘zdan 221ta (0,27%) kochilik sohasiga oid terminlar kiritilganligi aniqlandi.

Shu bilan birga, sohaviy lug‘atlardan, ya‘ni aynan tog‘-kon lug‘atlaridan Thrush, Paul W. A dictionary of mining, mineral, and related terms ingliz tilida (150 000 termin), S.A.Abdurahmonov, M.S.Qayumova, I.B.Nasridinovlarning o‘zbek tilidagi Ruscha-inglizcha tog‘-kon terminlarining o‘zbekcha izohli lug‘ati (3 000 termin), Tog‘-kon ensiklopediyasi (mining-ens.ru) rus tilida (87 000 termin) asosiy terminlar ma'lumotlar bazasi sifatida jamlangan.

Ingliz va rus tillaridagi konchilikka oid terminologik lug‘atlarni tahlil qilish jarayonida termin ta’riflarning quyidagi tartibda berilganligi aniqlandi: metall nomi, asosiy tushunchasi, atom massasi, metall xususiyatlari, kimyoviy element belgisi va iqtibos keltirish. Ushbu tahlil natijasida uch tilli konchilik terminologik lug‘atlarning tuzilishi va ularning tavsiflash usullari o‘rganildi.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida *“Konchilik terminlarining elektron izohli lug‘atini yaratish tamoyillari”* ochib berilgan.

